

1950-1960-YILLARDA SAMARQANDDA MAORIF ISHLARI

Usmonov Salohiddin Dushan o'g'li:

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand

davlat universitetining Pedagogika va

jismoniy madaniyat kafedrasi katta o'qituvchisi

G-mail: usmonovsalohiddin1@gmail.com

Telefon raqam: +998 99 073 99 62

Normurodova E'zoza Rafiq qizi:

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand

davlat universitetining "pedagogika va

tillarni o'qitish" fakulteti 1-bosqich talabasi

G-mail: ezoza2302@gmail.com

Telefon raqam: +998 94 939 99 07

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada 1950-1960-yillarda Samarqandda ta'lim tizimini rivojlantirish, xalqni ilmiy qilish borasida amalga oshirilgan ijtimoiy islohotlar hamda ularning natijalari, maorif institutlarining shakllanish jarayonlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *maorif institutlari, pedagoglar, sovet maktablari, texnikum xrestomatiya, kadrlar, sirtqi ta'lim, darslik, metodik qo'llanma, davlat universitetlari.*

EDUCATIONAL WORK IN SAMARKAND IN THE 1950S-1960S

Abstract: This scientific article discusses the social reforms carried out in Samarkand in the 1950s-1960s to develop the education system, educate the people, and their results, as well as the processes of formation of educational institutions.

Keywords: *educational institutions, teachers, Soviet schools, technical school textbooks, personnel, correspondence education, textbooks, methodological manuals, state universities.*

ПРОСВЕТИТЕЛЬСКАЯ РАБОТА В САМАРКАНДЕ В 1950-1960-Е ГОДЫ

Аннотация: В данной научной статье рассматриваются социальные реформы, проводимые в Самарканде в 1950-1960-х годах по развитию системы образования, просвещению народа, их результаты, а также процессы становления образовательных учреждений.

Ключевые слова: учебные заведения, учителя, советские школы, учебники для техникумов, кадры, заочное обучение, учебники, методические пособия, государственные вузы.

Insoniyat tarixida har bir millat va xalqning jahon ilm-fani, ma'naviyati va ma'rifatiga qo'shgan hissasi bo'ladi. Qadim tarixga ega bo'lgan yurtimiz o'z ajdodlarining dini-iymoni, ma'naviy kamolini diniy hamda dunyoviy ilmlariga tayangan holda boyitib kelgan. Ilm olish va berishga qaysi davrda bo'lishidan qat'iy nazar odamlar doim ehtiyoj sezgan.

Jamiyatimizda hayotdagi yangi bosqich – kommunizm qurish bosqichi, butun sovet xalqi qatori Samarqand mehnatkashlari uchun ham maorif, fan va madaniyatning yanada rivojlantirishdan, ma'naviy o'sishdan iborat bo'di. Sovet hokimiyati ta'lim tizimini barpo qilishda jamiyatni asosiy bo'g'ini bo'lgan yosh avlodning har tomonlama rivojlanib kamol topishini ta'minlovchi sovet maktablari, maxsus o'rta va oliy o'quv yurtlari juda muhim o'ynashini tasdiqladi.

Xalq xo'jaligini urushdan keyin qayta tiklash va rivojlantirish yillari O'zbekistonning sotsialistik madaniyatini rivojlantirishda muhim davr bo'ldi. Umumiy ta'lim muassasalarining o'quv – moddiy bazasini qayta tiklash, maktablarda ta'lim va tarbiya sifatini yaxshilash, yeti yillik umumiy ta'lim qonunini amalga oshirish, maktablarda yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash xalq maorifi sohasida asosiy vazifa bo'lib qoldi. Bu vazifalarni bajarishga Samarqand mehnatkashlari, xalq maorifi organlari, madaniyat va san'at arboblari bilan birga faol kirishdilar.

Partiya va hukumatimizning maktablarni o'qituvchi kadrlar bilan ta'minlash, maktabning moddiy bazasini mustahkamlash, aholi orasida ommaviy – siyosiy ishlar olib boorish haqida doimiy g'amxo'rlik qilib kelishi 1949-1950 o'quv yilidan boshlab yalpi, 7 yillik ta'limni amalga oshirishga kirishish uchun imkoniyat tug'dirdi. 1948-yilda Samarqand maktablarining pedagog kollektivlari jamoatchilik bilan birga SSSR ministrlari sovetining 1949-yilda boshlang'ich sinflarni tamomlagan hamma o'quvchilarni 1949-1950 o'quv yilidan boshlab 5-sinflarda o'qitish to'g'risidagi qarorini amalga oshirish borasida muhim ish qildi. Shu bilan bir vaqtda turli sabablarga ko'ra, maktabda ilgari o'qiyolmay qolib ketgan bolalarni 1-4-sinflarga tortish choralari ko'rildi.

O'zbek va boshqa milliy maktablarda rus tilini o'qitish ancha yaxshilandi, chet tillarni o'qitishni yaxshilash borasida ham bir qancha tadbirkor amalga oshirildi.

8-10-sinflardagi o'quvchilar soni ham ko'paydi. Shu sababli turli kitoblar hamda darsliklarga talab ortdi. Bir qancha olimlar ko'plab darslik, ilmiy kitoblarni yaratishdi. Xususan, taniqli metodist-olim Subutoy Dolimov 1940-yildan boshlab o'rta maktablar uchun adabiyot dasturlarini, 5-sinfдан tartib 10-sinfga qadar hamda pedagogika bilim yurtlari va texnikumlari uchun adabiyotdan darslik va majmualar tuzishda faol ishtirok

etibgina qolma, bu jarayonga rahbarlik ham qilib keldi. 1952-yilda u “Adabiy o’qish metodikasi”, 1955-yilda “Vatan adabiyoti”, “Xrestomatiyasi uchun metodik qo’llanma” (5-sinf uchun) asarlarini yaratdi va ushbu kitob va darsliklar maktablar uchun muhim manba bo’ldi.

O’qituvchi kadrlarning umumiy ta’lim darajasini rejali ravishda tinmay oshirildi. Pedagog va maktab rahbarlarining sifat darajasi sezilarli ravishda o’zgardi. 1956-1957-o’quv yilida Shahar maktablarida ishlab turgan 1335 ta o’qituvchining yarmidan ko’prog’I oliy ma’lumotli edi.

1953-yilda Samarqand davlat universiteti bilan bir qatorda o’qituvchilar institute negizida tashkil etilgan Samarqand pedagogika instituti hamoliy ma’lumotli o’qituvchilar tayyorlashga kirishganligi malakali o’qituvchi kadrlarni ko’paytirishga yordam berdi. Pedagoglarning ko’pgina qismi mana shu o’quv yurtlarining sirtqi va kechki bo’limlarida o’qib, oliy ma’lumot oldi. 1946-yildan 1958-yilgacha bo’lgan davr chida viloyat o’qituvchilaridan 3 mingga yaqin kishi sirtidan o’qib oliy ma’lumotli bo’ldi. Shulardan 1710 kishi O’zbekiston Davlat universitetining, 522 kishi o’qituvchilar insitutining, 732 kishi kechki pedagogika institutining sirtqi bo’limlarini tamomlagan edi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, 1950-1960-yillarda Samarqandda Sobiq Ittifoq tomonidan keng ko’lamli islohotlar o’tkazdi. Ta’lim sohasida amalga oshirilgan o’zgarishlar, maorif institutlarining ko’payishi hamda taabalar, ilmga izlanuvchilar, malakali kadrlarning yildan yilga oritshi shular jumlasidandir.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston eng yangi tarixi. Darslik. M.Ulug’bek nomidagi O’zbMU. Tosh. 2023
2. Madrasalar ta’limi tarixidan lavhalar. Monografiya. Mahkamoy Tursunova. “Mumtoz so’z” nashriyoti. Tosh, 2017
3. Turkiston maktab va madrasalari tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) Rustambek Shamsutdinov. Baxtiyor Rasulov. O’quv qo’llanma, 103-bet.
4. Samarqand tarixi. 2 tomlik II tom. Mas’ul muxarrir I.M.Mo’minov. Tosh, “Fan”, 1970 (O’zSSSR FA Tarix va arxeologiya in-ti A.Navoiy nomidagi Samarqand Davlat un-ti)T: 2.Ulug’ oktyabr sotsialistik revolutsiyaning g’alabasidan to shu kungacha. 496 bet.